

Sharapova Gulnoza Valentinovna
Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi
Mansurova Shahrizoda
Biologiya ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

O'ZBEKISTON CHO'LLARIDA UCHRAYDIGAN SUDRALIB YURUVCHILAR VAKILLARI BIOEKOLOGIYASI

ANNOTATSIYA: Tadqiqotning asosiy maqsadi kaltakesaklarni tashqi muhitga qay darajada moslashishi, ularni shu muhit sharoitida qay darajada ko'paya olishi, tarqalish chastotasi, ko'payish yoshi va populatsiyalar uchun nasl hajmi kabi xususiyatlar haqida o'rganish edi. Qizilqum cho'lida tarqalgan kaltakesakni rangi va hajmi o'rganish orqali dushmanidan himoyalash yo'llarini aniqlashdan iborat.

Kalit so'zlar: kaltakesak, timsohlar, ilonlar, Galapagos orollari, Qizilqum cho'llari, Antarktika, ekotizm.

ABSTRACT: The main goal of the study was to study the degree to which lizards adapt to the external environment, to what extent they can reproduce in these environmental conditions, such as distribution frequency, reproductive age, and offspring size for populations. The aim is to determine ways of protecting themselves from enemies by studying the color and size of lizards distributed in the Kyzylkum Desert.

KEYWORDS: lizards, crocodiles, snakes, Galapagos Islands, Kyzylkum deserts, Antarctica, ecotism.

O'zbekiston hududida cho'l ekotizimlari keng tarqalgan bo'lib, bu yerlarda turli sudralib yuruvchilar (reptiliyalarning) vakillari uchraydi. Ularning bioekologiyasi iqlim va landshaft sharoitlariga bog'liq. Kaltakesaklar sudralib yuruvchilarning eng keng tarqalgan turlaridan biri bo'lib, dunyo bo'ylab 6000 dan ortiq turlari mavjud. Ko'pgina kaltakesaklar yerda yashaydi, lekin daraxtlarda va yerostida yashaydigan turlari ham bor. Ular odatda hasharotlar va boshqa mayda hayvonlar bilan oziqlanadi. Kaltakesaklarni ko'plab turlari, har xil muhit sharoitiga moslashgan. Ko'plab turlari o'txo'r, bazi yirikroq turlari yirtqich hisoblanadi. O'txo'r kaltakesak deyarli butun dunyo bo'ylab tarqalgan, lekin asosan ular orasida o'txo'rlari iguanflardir. Ekstremal holat-Galapagos orollarida joylashgan iguana turi, *Amblyrhynchus cristatus*, u bir necha metr suv ostida butunlay dengiz o'tlari bilan oziqlanadi. Bulardan tashqari turlari yirtqich b'lib, faqat bu turlari hayvonlarni iste'mol qiladi. Hammaxo'r turlari esa hayvon va o'simliklar bilan oziqlanadi. Kaltakesaklar orasida Limford devori kaltakesaklari *Podarcis lilfordi* esa yo'qolib ketayotgan turlardan biridir. Kaltakesaklar yerning deyarli hamma qismida uchraydi, faqat Antarktika qit'asida uchramaydi, bunga sabab qilib kaltakesaklar sovuq qonli hayvonlar bo'lganligi uchun (ya'ni ularning tana harorati tashqi muhit harorati bog'liq).

Quyida O'zbekiston cho'llarida yashovchi asosiy sudralib yuruvchilar vakillari va ularning ekologik xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

1. Kaltaoyoq kaltakesak (*Phrynocephalus*)- Qizilqum, Ustyurt platosi va Kattaqo'rg'on cho'llarida keng tarqalgan. Qum yuzasida yashashga moslashgan, rangi o'zgaruvchan, issiqdan qochish uchun qum ostiga kiradi. Hasharotlar va mayda umurtqasizlar bilan oziqlanadi.

2. Qurolboshi kaltakesak (Trapelus sanguinolentus)- Qizilqum, Ustyurt platosi, Qoraqum cho'llarida tarqalgan. Oyoqlari uzun va harakatlari tez, issiq qum ustida harakatlanishga moslashgan. Rangi yashash muhitiga mos ravishda qum yoki tuproq tusida bo'ladi, asosan hasharotlar bilan oziqlanadi.

3. Ilonlar (Serpentes). Bularning bir nechta turlari uchraydi, ular ichida zaharli va zaharsiz turlari ham bor.

*O'qilon (Eryx tataricus) asosan Cho'l va yarim cho'llar, qumloq hududlar uchraydi, u zaharsiz, tanasi kalta va yo'g'on. Asosan kechasi faollik ko'rsatadi, qum ostida yashirinib yuradi. Mayda kemiruvchilar va sudralib yuruvchilar bilan oziqlanadi.

*Halqalimon ilon (Psammophis lineolatus)-O'zbekiston cho'llarining deyarli barcha hududlarida uchraydi. Juda tez harakatlanadi va tunda ov qiladi. Mayda kaltakesaklar, kemiruvchilar va hasharotlar bilan oziqlanadi.

*Qora ilon (Dolichophis jugularis)- O'rta Osiyoning janubiy hududlari, jumladan O'zbekiston cho'l qismida ham tarqalgan. Zaharsiz, uzunligi 2 metrga yetishi mumkin. Quruq cho'l hududlarda yashaydi va kemiruvchilar bilan oziqlanadi. Deyarli barcha ilonlarning tanasi tangachalar bilan qoplangan, ular ikki asosiy maqsadga xizmat qiladi, ular qurg'oqchilik iqlim sharoitida namlikni ushlab turishga yordam beradi va ilonlar harakatlanayotganda ishqalanishni kamaytiradi.

4. Toshbaqalar (Testudinidae)-Markaziy Osiyo toshbaqasi (Agrionemys horsfieldii)- Qizilqum, Qoraqum, Zarafshon vodiysi, Ustyurt platosi hududlarida tarqalgan. Cho'l o'simliklari bilan oziqlanadi. Bahorda faollashadi, yozning jazirama issig'ida esa iniga kirib oladi. Ko'p qismi qish va yozni uyqu holatida o'tkazadi. Toshbaqalar odatda quruqlikda yashaydi, boshqa tomondan, toshbaqalar ko'p vaqtlarini suvda o'tkazadilar va ko'pchilik suv havzalari va daryolarda suzishga yordam berish uchun to'rt oyoqlari moslashtirilgan.

5. Echkiemar (Varanus griseus)- Qoraqum, Qizilqum, Ustyurt platosi tarqalgan. O'zbekistonning eng yirik sudralib yuruvchilaridan biri (uzunligi 1,5 metrga yetishi mumkin). Asosan yirtqich, mayda sutemizuvchilar, qushlar va sudralib yuruvchilar bilan oziqlanadi. Cho'l hududlarda qattiq himoya mexanizmlariga ega va tez harakatlanadi.

Kaltakesaklarning ekotizmdagi ahamiyatini oshirib bo'lmaydi, chunki ular tabiat muvozanatini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu sudralib yuruvchilar ko'pincha e'tibordan chetda qoladi, lekin ular ko'plab ekotizmlarning, jumladan o'rmonlar, o'tloqlar va cho'llarning muhim tarkibiy qismidir. Kaltakesaklar ektotermikdir, ya'ni ular quyosh yoki issiq tosh kabi tashqi manbalar yordamida tana haroratini tartibga soladi, bu ularga turli xil muhitda rivojlanishiga imkon beradi.

Xulosa

O'zbekiston cho'llarida uchraydigan sudralib yuruvchilar issiq iqlimga moslashgan, ba'zilari yashirin hayot kechiradi, ba'zilari esa tez harakatlanib, yirtqichlik qiladi. Ularning aksariyati ekologik muvozanatni saqlashda muhim rol o'ynaydi, chunki ular hasharotlar, kemiruvchilar va boshqa mayda jonivorlar sonini tartibga soladi. Biroq, antropogen omillar, jumladan, cho'llarning o'zlashtirilishi va brakonerlik ularning populyatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. J.L.Laxanov „Umurtqalilar zoologiyasi” Toshkent 2005 y
- 2.S.Dadayev, Q.Saparov „Zoologiya (Xordalilar-2)” Toshkent 2011 "Cho'lpon" nashriyoti
2. 3.S.Dadayev, S.To'ychiyev, P.Haydarova „Umurtqalilar zoologiyasi” Toshkent 2006 y
- 4.Pianka and Vitt, 2003 E.R.Pianka Lizard
5. B.S.Salimov ,A.S.Daminov "Zoologiya" o'quv qo'llanma O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2012
6. Mavlonov O.,Toshmanov N., Saparov K „Zoologiya ” Toshkent 2018 y
- 7.Kearney et al ,2009 M.R.Kearney, W.Porter, R.Shine Tre potential for behavioral thermoregulation to buffer'coldblooded'animals against climate warming